Tezkor-qidiruv va tergov faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish, fuqarolarning qadr-qimmati va erkinligini samarali himoya qilishning ta’sirchan mexanizmlarini joriy etish.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarda jinoyatlar haqida xabarlarni hisobga olish tizimini tubdan isloh qilish, jinoyatlarni yashirish holatlarining oldini olishda zamonaviy usullardan foydalanish.

**18-maqsad: Sud va boshqa organlar hujjatlarining o‘z vaqtida va to‘liq ijrosini ta’minlash.**

Sud va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishning samarali mexanizmlarini joriy etish.

Sud va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishning muqobil, shu jumladan suddan tashqari usullaridan foydalanish ko‘lamini kengaytirish.

Majburiy ijro organlari faoliyatiga xalqaro standartlarni bosqichma-bosqich joriy etish va ayrim funksiyalarni (sud hujjatlaridan tashqari) xususiy sektorga o‘tkazish, davlat ijrochilari ish yuklamasini kamaytirish.

**19-maqsad: Advokatura institutining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, aholi va tadbirkorlik subyektlarining malakali huquqiy xizmatlarga bo‘lgan talabini to‘liq qondirish.**

Advokatura institutini to‘laqonli o‘z-o‘zini boshqarish tizimiga o‘tkazish, Advokatlar palatasi boshqaruv organlarining advokatlar hamjamiyati oldidagi hisobdorligini kuchaytirish, tizimga yosh malakali kadrlarni jalb qilish.

Advokatlar malakasini oshirish tizimining zamonaviy va samarali mexanizmlari va institutsional asoslarini shakllantirish.

Advokatlik faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish orqali ortiqcha byurokratiya va qog‘ozbozlikka chek qo‘yish, sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat organlari bilan elektron hujjatlar almashinuvini yo‘lga qo‘yish.

Bepul huquqiy yordam ko‘rsatish ko‘lamini kengaytirish, notariat va fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish organlarining xizmatlaridan ovoragarchiliksiz, shu jumladan masofadan turib va “yagona darcha” tamoyili asosida foydalanishni ta’minlash.

**20-maqsad: Faol fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda fuqarolar o‘rtasida qonunga hurmat va itoat qilish hissini shakllantirish.**

Aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va ta’lim tashkilotlari bilan o‘zaro samarali hamkorligini yo‘lga qo‘yish.

Tadbirkorlar va aholi, ayniqsa uning kam ta’minlangan qatlamlari uchun huquqiy hujjatlarni yurist ishtirokisiz tayyorlash imkonini beruvchi “Legal Tech” platformasini ishga tushirish.

## III. MILLIY IQTISODIYOTNI JADAL RIVOJLANTIRISh VA YUQORI O‘SISh SUR’ATLARINI TA’MINLASh

**21-maqsad: Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni — 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan**

**oshirish hamda “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish uchun zamin yaratish.**

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va yillik inflatsiya darajasini 2023-yilgacha bosqichma-bosqich 5 foizgacha pasaytirish.

Davlat budjeti taqchilligini qisqartirish va 2023-yildan yalpi ichki mahsulotga nisbatan uning 3 foizdan oshib ketmasligini ta’minlash.

Har bir tuman budjetining kamida 5 foizini “Fuqarolar budjeti” dasturi doirasida aholining takliflari asosida eng dolzarb muammolarni yechishga sarflashni tashkil qilish.

Davlat qarzini boshqarishda yiliga yangi jalb qilingan tashqi qarz miqdori 4,5 milliard AQSh dollaridan oshib ketmasligini ta’minlash.

**22-maqsad: Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish.**

Sanoatning yetakchi tarmoqlari va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish hamda transformatsiya jarayonlarini yakunlash.

Energiya resurslari va tabiiy gaz bozorlarini ijtimoiy himoya kafolatlarini belgilagan holda erkinlashtirib, sohaga xususiy investitsiyalarni keng jalb qilish hamda ehtiyojmand aholini himoya qilish uchun ijtimoiy iste’mol normalarini kiritish.

Iqtisodiyot tarmoqlari va aholiga neft-gaz mahsulotlarini uzluksiz yetkazib berilishini ta’minlash.

Mis sanoati klasterini tashkil etish orqali mis va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 2 baravar ko‘paytirish hamda 8 milliard dollarlik mahsulot ishlab chiqarish uchun asos yaratish.

Kimyo va gaz-kimyosi sohalarini rivojlantirish va tabiiy gazni qayta ishlash darajasini 8 foizdan 20 foizga yetkazish orqali kimyo sanoatida 2 milliard AQSh dollariga teng mahsulot ishlab chiqarish.

Avtomobil sanoatida kooperatsiyani yanada rivojlantirish orqali ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga, eksport hajmini 2 baravarga ko‘paytirish va mahalliylashtirish darajasini oshirish. Chirchiq shahrida qishloq xo‘jaligi mashinasozligi ishlab chiqarishini yagona sanoat klasteri usulida tashkil etish.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko‘paytirish.

To‘qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko‘paytirish.

Charm-poyabzal sohasini rivojlantirish orqali ishlab chiqarish hajmini 3 baravarga ko‘paytirish.

Farmatsevtika sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 3 baravar ko‘paytirish va mahalliy bozorni ta’minlash darajasini 80 foizga yetkazish.

Elektrotexnika sanoatida yuqori qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga va eksportini 3 baravarga oshirish.

Mebel mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2,8 baravarga ko‘paytirish.

Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish dasturini amalga oshirish.

Yirik sanoat tarmoqlari va hududiy korxonalar o‘rtasida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish.

Sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini keng joriy qilish.

**23-maqsad: Geologiya-qidiruv ishlari hajmini keskin oshirish, sohaga xususiy investorlar va ilg‘or xorijiy kompaniyalarni keng jalb qilish.**

Istiqbolli maydonlarda geologiya-qidiruv va konlarda qazib olish ishlariga shaffof mexanizmlar asosida mahalliy va xorijiy investorlarni keng jalb qilish.

Iqtisodiyot uchun zarur mineral xomashyo bazasini kengaytirish.

Uglevodorod xomashyosi mavjud konlar, geologiya-qidiruv maydon va strukturalarini tahlil qilgan holda ularga shaffof mexanizmlar asosida investorlarni jalb qilish orqali qazib chiqarish hajmlarini oshirish.

Geologiya sohasida zamonaviy ta’lim standartlarini keng joriy etgan holda malakali kadrlarni tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish hamda ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish.

**24-maqsad: Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta’minlash hamda “Yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish.**

2026-yilga kelib elektr energiyasi ishlab chiqarish ko‘rsatkichini qo‘shimcha 30 milliard kVt.soatga oshirib, jami 100 milliard kVt.soatga yetkazish.

2026-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25 foizga yetkazish evaziga yiliga qariyb 3 milliard kub metr tabiiy gazni tejash.

O‘zbekiston energetika tizimining qo‘shni davlatlar energetika tizimlari bilan barqaror ishlashini ta’minlash.

Sanoat tarmoqlarida yo‘qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish.

Uy-joy-kommunal xo‘jaligi, ijtimoiy soha obyektlari va boshqa sohalarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish va energiya samaradorligini oshirish.

Elektromobillar ishlab chiqarish va ulardan foydalanish bo‘yicha choralarni ko‘rish.

Iqtisodiyot tarmoqlarining havoga chiqaradigan zararli gazlar hajmini bir birlik Yalpi ichki mahsulot hisobida 10 foizga qisqartirish**.**

**25-maqsad: Raqamli iqtisodiyotni asosiy “drayver” sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish.**

Raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish orqali barcha aholi maskanlarini va ijtimoiy obyektlarni hamda magistral avtomobil yo‘llarini keng polosali ulanish tarmoqlari bilan qamrab olish.

Iqtisodiyotning real sektorida hamda moliya va bank sohalarida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 2026-yil yakuniga qadar 70 foizgacha oshirish.

Dasturiy mahsulotlar industriyasi hajmini 5 baravar, ularning eksportini esa 10 baravar oshirib, 500 million AQSh dollariga yetkazish.

**26-maqsad: Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko‘rish.**

Investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo‘yicha, “pastdan-yuqoriga” tamoyili asosida, yangi tizimni yo‘lga qo‘yish.

2026-yilgacha Xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini amalga oshirish.

Davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog‘liqni saqlash, ta’lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo‘jaligi va boshqa sohalarga 14 milliard AQSh dollarga teng investitsiya jalb etish.

Respublika hududlari va xorijiy mamlakatlar biznes vakillari o‘rtasida tashqi iqtisodiy aloqalarni o‘rnatish, jumladan Sirdaryo viloyatining Xitoy Xalq Respublikasi, Surxondaryo viloyatining Rossiya Federatsiyasi hamda Jizzax viloyatining Hindiston biznes doiralari bilan investitsiya va tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish.

Surxondaryo viloyatida “Investorlarga ko‘mak markazi”, Navoiy viloyatida Navoiy kon-metallurgiya kombinati tomonidan “Biznesga ko‘maklashish markazi” va Toshkent shahrida “Ilg‘or loyihalar va injiniring markazi” va har bir tumanda “Innovatsiya va texnologiya markazlari” tashkil qilib, tadbirkorlarga amaliy yordam ko‘rsatish.

Toshkent shahrida har yili “Toshkent xalqaro investitsiya forumi”ni o‘tkazib borish.

**27-maqsad: Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko‘paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSh dollaridan 7 milliard AQSh dollariga yetkazish.**

Mamlakatimizda kapital harakatini bosqichma-bosqich erkinlashtirish hamda yirik korxonalarni va ulardagi ulushlarni (aksiyalarni), shu jumladan fond birjasi orqali xususiylashtirish.

Davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushini 60 foizgacha yetkazish.

**28-maqsad: Respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026-yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSh dollariga yetkazish.**

Eksportchi korxonalar faoliyatini qoʻllab-quvvatlash tizimini faol davom ettirish orqali respublika eksport salohiyatini oshirish.

Mavjud imkoniyatlarni toʻliq ishga solgan holda mahalliy sanoat tarmoqlari eksport salohiyatini yanada rivojlantirish.

Tashqi bozor va xalqaro talablarga javob beradigan standartlarni joriy etish va mashhur brendlarni jalb qilish.

Xususiy sektorning eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish.

Avtotransport vositalari eksportini 3 baravarga oshirish va 1 milliard AQSh dollariga yetkazish.

Turizm, transport, axborot-kommunikatsiya, jumladan dasturiy taʼminotlar va boshqa xizmatlar eksportini 1,7 baravarga oshirish yoki 4,3 milliard AQSh dollariga yetkazish.

Eksportchi korxonalarga koʻrsatilayotgan tashkiliy va moliyaviy yordam berish tizimini takomillashtirish.

Eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 baravar koʻpaytirib, Yevropa davlatlariga GSP+ tizimi doirasida tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirish.

Mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xorijiy davlatlarga chiqarishda koʻmaklashish tizimini takomillashtirish hisobiga eksportchi korxonalar sonini hozirgi 6 500 tadan 15 000 taga, tovarlarning eksport geografiyasini 115 tadan 150 taga yetkazish.

“Yangi Oʻzbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti” gʻoyasi asosida 200 ta eksportchini ochiq tanlov asosida saralab, ularni yetakchi eksportyorlarga aylantirish va har tomonlama qoʻllab-quvvatlash.

Qoʻshni davlatlar bilan chegara hududlarda erkin savdo zonalari faoliyatini yoʻlga qoʻyish.

**29-maqsad: Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish.**

Har yili Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan “Ochiq muloqoti”ni oʻtkazish.

Hududlarda 200 ta yangi sanoat zonalarini tashkil etish va biznes-inkubatorlar tizimini rivojlantirish. Sharoiti ogʻir boʻlgan tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish.

Ilg'or xorijiy tajriba asosida faktoring amaliyotini rivojlantirish.

2026-yilga borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish.

Hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatini boshlashi uchun zarur ma'lumotlarni erkin foydalanishga chiqarish. Qurilish faoliyatida qurilish nuqsonlari yoki muammolarining oldini olish.

Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektorga keng yo'l ochish. Iqtisodiy munosabatlarda erkin bozor tamoyillarini joriy etishni kengaytirish.

**30-maqsad: Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish.**

Tumanlarni aniq mahsulot turini yetishtirishga ixtisoslashtirish.

Qishloq xo'jaligida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish va sug'urtalashning yangi mexanizmlarini amalga oshirish.

Yangi va foydalanishdan chiqqan 464 ming gektar maydonni o'zlashtirish va klasterlarga ochiq tanlov asosida ajratish. 200 ming gektar paxta va g'alla maydonlarini qisqartirish hamda aholiga ochiq tanlov asosida uzoq muddatli ijaraga berish.

Eksportbop mahsulotlar yetishtirish hamda meva-sabzavotchilikni rivojlantirish, intensiv bog'lar maydonini 3 baravar va issiqxonalarni 2 baravar ko'paytirib, eksport salohiyatini yana 1 milliard AQSh dollariga oshirish.

Tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish.

Ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish. Agrosanoat korxonalarini xomashyo bilan ta'minlash va ishlab chiqarish hajmini 1,5 baravar oshirish.

Agrologistika markazlarini rivojlantirish va zamonaviy laboratoriyalar sonini ko'paytirish. Urug'chilik va ko'chat yetishtirish bo'yicha milliy dasturni amalga oshirish.

Nufuzli xalqaro ilmiy markazlar va oliy ta'lim muassasalari bilan birgalikda Xalqaro qishloq xo'jaligi universitetini tashkil etish. Agrar sohada ilm-fan va amaliyot integratsiyasini chuqurlashtirish.

Aholi tomonidan tomorqalardan samarali foydalanilishi uchun sharoitlar yaratish.

**31-maqsad: Suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni iqtisod qilish bo'yicha alohida davlat dasturini amalga oshirish.**

Suv resurslaridan samarali foydalanish hisobiga kamida **7 milliard** kub metr suvni iqtisod qilish.

Suv xo'jaligi obyektlarida elektr energiyasi iste'molini kamaytirish.

Suv xo'jaligi obyektlarini davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida boshqarish.

**32-maqsad: Chorvachilik ozuqa bazasini kengaytirish va ishlab chiqarish hajmini 1,5 — 2 baravar ko'paytirish.**

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini 1,5 — 2 barobarga oshirish.

Chorvachilik ozuqa bazasini mustahkamlash.

**33-maqsad: Hududlarni mutanosib rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyotni 1,4 — 1,6 baravarga oshirish.**

14 ta hudud bo'yicha tuman va shaharlar kesimida ishlab chiqilgan besh yillik hududiy dasturlarni amalga oshirish. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish reyting ko'rsatkichlari "qoniqarsiz" bo'lgan shahar va tumanlar bo'yicha amaliy chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Hududlarda aholining yashash sharoitini yaxshilash uchun urbanizatsiya siyosatini yanada takomillashtirish. Samarqand va Namangan shaharlarini istiqbolda "millionlik shaharlar"ga aylantirish bo'yicha choralar ko'rish. 450 ming aholiga mo'ljallangan Yangi Andijon shahrining dastlabki bir nechta mavzelarini qurib, foydalanishga topshirish. Qashqadaryo viloyatining urbanizatsiya darajasini 50 foizga yetkazish.

Shaharlardagi aholining turmush tarzi qulayligini baholovchi "Shaharlar qulayligi" indeksini joriy etish.

Shaharlarni raqamlashtirish, qurilish va loyihalashtirish ishlari sifatini oshirish va "Aqlli shahar" konsepsiyasiga muvofiq rivojlantirish.

Toshkent shahrida barpo etilgan "INNO" innovatsion o'quv-ishlab chiqarish texnoparkini 4 ta hududda tashkil etish. Innovatsion hududga aylantirilayotgan tumanlarda yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini o'zlashtirish.

Oliy ta'lim muassasalarida arxitektura-qurilish sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish.

Qurilish sohasini texnik tartibga solish. Aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish tizimini tubdan takomillashtirish va shaharsozlik hujjatlari bilan ta'minlash dasturini ishlab chiqib, amalga oshirish.

Aholini joylashtirishning bosh sxemasini ishlab chiqish. Renovatsiya va uy-joylar dasturlari asosida shaharlarda eskirgan uylar o'rniga 19 million kvadrat metrdan ortiq zamonaviy uy-joylarni barpo

etish, 275 mingdan ziyod oilaning yangi massivlarga koʻchib oʻtishi uchun sharoit yaratish.

**34-maqsad: Hududlarning muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tizimini hamda xizmat koʻrsatish va servis sohalarini rivojlantirish.**

“Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida hududlarning “oʻsish nuqtalari”dan kelib chiqib, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini qurishga alohida e’tibor qaratish.

Respublika hududlarida qariyb 80 ming kilometr magistral va taqsimlovchi elektr tarmoqlari, 20 mingdan ortiq transformator punktlari hamda 200 dan ziyod podstansiyani qurish va yangilash.

Respublika aholisining ichimlik suvi bilan ta’minlanganlik darajasini 87 foizga yetkazish, 32 ta yirik shaharlar va 155 ta tuman markazlarida oqova suv tizimlarini yangilash.

Suv ta’minoti quvurlaridagi suv sirqish nuqtalarini sun’iy yoʻldosh texnologiyasi orqali masofadan zondlab aniqlash va ta’mirlashga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish.

Toshkent shahrida oqova suvini tozalash tizimini shahar hududidan tashqariga chiqarib, davlat-xususiy sheriklik asosida yangi inshootlarni barpo etish.

Hududlarda xizmat koʻrsatish va servis sohalarini rivojlantirish orqali keyingi 5 yilda xizmat koʻrsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda ushbu yoʻnalishda jami 3,5 million yangi ish oʻrinlarini yaratish.

Shahar va tumanlar markazlarida aholining kundalik ehtiyoji yuqori boʻlgan maishiy va kommunal xizmatlarni rivojlantirish boʻyicha pullik santexnika, elektrik, uy jihozlarini ta’mirlash, keytering kabi xizmatlarni koʻrsatish punktlarini rivojlantirish.

Respublika hududlarida savdo va yoʻlboʻyi xizmatlarini rivojlantirish orqali 130 ta zamonaviy bozorlar va savdo komplekslari, shuningdek, yoʻlboʻyi infratuzilmasini rivojlantirish boʻyicha 65 ta yirik hamda 5000 ta kichik xizmat koʻrsatish obyektlarini tashkil etish.

Servis sohasida yashirin iqtisodiyot ulushini 3 baravarga qisqartirish. Xizmatlar sohasining jozibadorligini oshirish maqsadida sohadagi tadbirkorlik subyektlariga qoʻshimcha imtiyozlar taqdim etish.

**35-maqsad: “Oʻzbekiston boʻylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish.**

Toʻsiqsiz turizm infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlarida keng joriy qilish. 2026-yilgacha turizm sohasida band boʻlgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga yetkazish.

Turizm va madaniy meros obyektlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda 8 mingdan ortiq madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish bo'yicha davlat dasturini qabul qilish.

Zomin, Forish, Baxmal tumanlari va "Aydar-Arnasoy" ko'llar tizimida qo'shimcha turistik zonalar va dam olish maskanlarini barpo etish, 300 million AQSh dollariga teng loyihalarni amalga oshirish, 25 ming ish o'rinini yaratish.

Samarqandni "Turizm darvozasi"ga aylantirish orqali kelgusi besh yilda turizm xizmatlari hajmini kamida 10 baravarga oshirish. Turizm sohasida 40 ming kishi bandligini ta'minlash. 2022-yilda "Abadiy shahar" tarixiy majmuasini o'z ichiga olgan Samarqand turizm markazini va zaruriy infratuzilmani tashkil etish.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va Orol bo'yida ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha alohida dasturni amalga oshirish. Bunda, Mo'ynoqning yangi aeroporti imkoniyatlaridan keng foydalanish.

Xorazm viloyatida turizm yangi ish o'rinlarini yaratishda asosiy drayver soha bo'lishi uchun alohida dastur qabul qilish.

Buxoro viloyatida turizmni jadal rivojlantirish bo'yicha alohida dasturni amalga oshirish.

Navoiy viloyatida ziyorat va ekoturizm salohiyatidan samarali foydalanish.

Toshkent shahrida turizm infratuzilmasini yanada yaxshilash.

Toshkent viloyatida turizm salohiyatini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha alohida dastur ishlab chiqish.

**36-maqsad: Barcha transport turlarini uzviy bog'lagan holda yagona transport tizimini rivojlantirish, yirik shaharlar o'rtasida kunlik transport qatnovlari asosida manzilga yetib borish va qaytib kelish imkoniyatini yaratish.**

Toshkent shahri va hududlarda jamoat transporti tizimini takomillashtirish va uning infratuzilmasini rivojlantirish.

Shaharlararo va shahar atrofi temir yo'l qatnovlari jozibadorligini oshirish.

Transport va logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish, temir yo'l infratuzilmasini elektrlashtirish darajasini 60 foizga yetkazish va avtomobil yo'llari tarmog'ini jadal rivojlantirish.

Transport sohasida tashqi savdo uchun "yashil koridorlar" hamda tranzit imkoniyatlarini kengaytirish va tranzit yuk hajmini 15 million tonnaga yetkazish.

## IV. ADOLATLI IJTIMOIY SIYOSAT YURITISh, INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH

**37-maqsad: Har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratish. Kasbga o'qitish ko'lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlarga**

**o‘qitish va bu jarayonda nodavlat ta’lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish.**

Kasbiy ta’lim bilan tizimli ravishda shug‘ullanish masalalarini to‘liq ravishda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ixtiyoriga o‘tkazish.

Kasbga o‘qitish ko‘lamini 2 baravarga oshirish, jami 1 million nafar ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o‘qitish.

Umumta’lim maktablarining kasb o‘rganish istagidagi bitiruvchilarini davlat tomonidan kamida bir kasbni egallashiga ko‘maklashuvchi tizimni joriy etish.

**38-maqsad: Maktabgacha ta’limdagi qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish.**

2022/2023-yillarda 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 90 foizga, 2024/2025 o‘quv yili yakuniga qadar 100 foizga yetkazish.

Maktabgacha ta’lim tizimiga xususiy sektor mablag‘larini jalb qilish orqali 7 mingdan ziyod yangi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish.

**39-maqsad: Maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish.**

Bog‘cha xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish.

2022 — 2026-yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish.

Maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish.

**40-maqsad: Maktabgacha ta’lim tizimida budjet mablag‘larining maqsadli va samarali sarflanishini ta’minlash.**

Maktabgacha ta’lim tizimida moliyaviy jarayonlarning shaffof tarzda amalga oshirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish.

**41-maqsad: Maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta’limi tizimida qo‘shimcha 1,2 million o‘quvchi o‘rni yaratish.**

Yangi maktablar qurish, xususiy maktablarni ko‘paytirish, ta’lim sifatini oshirishni nazarda tutuvchi milliy dasturni ishlab chiqish va amalga oshirish.

O‘quv o‘rinlari sonini 2026-yil yakuniga qadar 6,4 milliongacha yetkazish.

Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatuvchi tashkilotlarga sharoit va imkoniyatlarni kengaytirish orqali ularning ulushini 2026-yilda 8 foizga, shu jumladan 2022-yilda 3 foizga oshirish.

2022 — 2026-yillarda 217 ta “Barkamol avlod” bolalar maktabini rivojlantirish bo‘yicha dasturni amalga oshirish.

Yoshlarni san’at dunyosiga oshno etish, kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari uchun zarur jihozlar bilan ta’minlangan 100 mingdan ortiq bepul to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

Chekka hududlarda maktab hamda maktabgacha ta’lim muassasalarigacha transport qatnovini yo‘lga qo‘yish.

**42-maqsad: 2026-yilga qadar o‘quv dasturlari va darsliklarni ilg‘or xorijiy tajriba asosida to‘la qayta ko‘rib chiqib, amalda joriy etish.**

Milliy o‘quv dasturiga asosan 2026-yilga qadar 699 nomdagi, shu jumladan 2022-yilda 296 nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, o‘qituvchi metodika kitoblari hamda mobil ilovalarni yaratish.

Milliy o‘quv dasturi bo‘yicha yangi metodikalarga o‘qituvchilarni o‘qitish maqsadida Elektron malaka oshirish platformasi uchun 2026-yilga qadar jami 769 ta videodars yaratish.

Umumta’lim maktablarida darslik va o‘quv-metodik majmualarni tajriba-sinovdan hamda chet ellik mutaxassislar ishtirokida ekspertizadan o‘tkazish tizimini joriy etish.

**43-maqsad: Malakali o‘qituvchilarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1 000 AQSh dollari ekvivalentiga yetkazish.**

Iqtidorli o‘qituvchilarning ish haqlarini malaka toifasiga qarab tabaqalashtirilgan holda oshirib borish.

O‘qituvchilarga malaka toifalarini berish tartibini tubdan qayta ko‘rib chiqish hamda malakani baholash metodikasi asosida adolatli va shaffof tizimni joriy etish.

**44-maqsad: Maktablarda ta’lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish.**

Maktabda faoliyat olib borishi uchun har bir fan bo‘yicha mahalliy yoki xalqaro sertifikatsiya talablarini belgilash.

Toifaga ega bo‘lmagan maktab o‘qituvchilarining bilim va ko‘nikmalarini diagnostikadan o‘tkazish.

Umumta’lim maktablarini, ayniqsa, chekka hududlardagi ta’lim maskanlarini oliy ma’lumotli pedagog kadrlar bilan to‘ldirish ishlarini davom ettirish.

Maktablarda direktor va uning o‘rinbosarlarini tayinlash tizimini maktab o‘qituvchilari va ota-onalarning ishtiroki ta’minlanishini nazarda tutgan holda yanada takomillashtirish.

Xalq ta’limi tizimi tuman bo‘linmalari faoliyatini to‘liq raqamlashtirish hisobiga optimallashtirish.

**45-maqsad: Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bosqichma-bosqich bepul ovqat bilan ta’minlash.**

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida tajriba-sinov tariqasida boshlang‘ich sinf (1 — 4-sinf) o‘quvchilarini bepul ovqat bilan ta’minlash tizimini joriy etish.

Tajriba-sinov natijalariga ko‘ra boshlang‘ich sinf (1 — 4-sinf) o‘quvchilarini bepul ovqat bilan ta’minlash tizimini kengaytirish masalasini ko‘rib chiqish.

**46-maqsad: Oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta’lim sifatini oshirish.**

Kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida qabul parametrlarini 2022-yilda oshirish.

2022-yilda yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 38 foizga yetkazish.

To‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilish parametrlarini oliy ta’lim muassasalari tomonidan mustaqil belgilash tartibini joriy etish.

2026-yilda qabul ko‘rsatkichini kamida 250 mingga yetkazish.

Davlat oliy ta’lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish, shu jumladan ular tomonidan mehnatga haq to‘lash, xodimlar soni, to‘lov-kontrakt miqdori va ta’lim shaklini mustaqil belgilash amaliyotini yo‘lga qo‘yish.

Davlat oliy ta’lim muassasalarining tegishli huquq va vakolatlarini aniq belgilash.

**47-maqsad: 2026-yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta’lim muassasasini QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash.**

Oliy ta’lim muassasalarining QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishi uchun maqsadli dasturni ishlab chiqish.

10 ta salohiyatli oliy ta’lim muassasasini tanlash.

Salohiyati va o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, xalqaro reytinglarga kiritish bo‘yicha 5 yilga mo‘ljallangan maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va tasdiqlash.

**48-maqsad: Qariyb 100 ming o‘rinli talabalar turar joylarini barpo etish.**

Talabalar turar joylarini davlat-xususiy sheriklik asosida barpo etishda loyihalarni moliyalashtirishning maqbul usullarini yo‘lga qo‘yish.

2022-yilda 18 800 o‘rinli 47 ta talabalar turar joylarini barpo etish.

2026-yilga qadar 72 400 o‘rinli 181 ta talabalar turar joylarini barpo etish natijasida talabalarni yotoqxona bilan ta’minlash darajasini 60 foizdan oshirish.

**49-maqsad: 2026-yilgacha nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari sonini kamida 50 taga yetkazish.**

2022-yilda Navoiy, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari va Toshkent shahrida kamida 1 tadan nodavlat oliy ta’lim tashkilotini tashkil etish orqali ularning jami sonini 34 taga yetkazish.

Qoraqalpogʻiston Respublikasida 5 ta nufuzli mahalliy va xorijiy oliygohlarning filiallarini hamda Toshkent viloyatida 5 ming nafar talabaga moʻljallangan Nurafshon davlat universitetini tashkil etish.

Andijon viloyatida 4 ta xususiy oliygoh tashkil etish. Natijada hududdagi yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrovini 23 foizdan 50 foizga yetkazish.

Namanganda kelgusi 5 yilda 7 ta oliygoh tashkil etib, jami oliy oʻquv yurtlari sonini 10 taga yetkazish.

Samarqand shahrida 20 ming nafar talabaga moʻljallangan “Yoshlar shaharchasi”ni barpo etib, unda kamida 4 ta xorijiy universitetning filial va kampuslarini joylashtirish. Xorijiy davlatlarning yetakchi texnika universiteti bilan birgalikda Samarqand texnologiya universitetini tashkil etish.

Urganch davlat universiteti qoshida Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi xalqaro matematika markazi va jamgʻarmasini, Oʻzbekiston davlat xoreografiya akademiyasining Urganch filiali va uning qoshida Urganch boshlangʻich raqs san’ati maktab-internatini tashkil etish.

2026-yilga qadar respublika hududlarida kamida 1 tadan nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarini tashkil etish orqali ularning sonini 50 taga yetkazish.

**50-maqsad: “El-yurt umidi” jamgʻarmasi orqali erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy oliygohlarga oʻqishga yuborish koʻlamini 2 baravarga oshirish, bunda yoshlarning 50 foizini texnik, aniq fanlar va IT sohalariga oʻqitish.**

Xorijiy davlatlarning eng nufuzli universitetlarida bakalavriat, magistratura va doktoranturada ta’lim olish uchun ochiq saralash tanlovlarini oʻtkazish.

Xorijiy oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat, magistratura va doktorantura ta’lim dasturlarida qatnashish maqsadida Jamgʻarma tomonidan ochiq tanlov e’lon qilish va oʻtkazish.

**51-maqsad: Iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalari va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish.**

Innovatsion hududga aylantirilayotgan tumanlarda mavjud analoglaridan 50 foizgacha arzonlashtirilgan va sifatli, xomashyo narxiga nisbatan 2-3 baravar yuqori qoʻshilgan qiymat yaratadigan innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini oʻzlashtirish, shu jumladan umumiy qiymati 165,9 milliard soʻmlik jami 195 ta loyihani amalga oshirish.

Oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutlarida toʻlov-grant asosida oʻqishni tashkil etish.

**52-maqsad: Global innovatsion indeksda Oʻzbekiston Respublikasining oʻrnini yaxshilash va 2030-yilga qadar top-50 mamlakatlari qatoriga kirish.**

Global innovatsion indeksda qayd etilgan past indikatorlar bo‘yicha O‘zbekiston pozitsiyasini yaxshilash.

Innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun barcha yo‘nalishlarda keng imkoniyatlarni yaratish, tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish.

**53-maqsad: Aholi uchun majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta’minlash, ehtiyojmand qatlamlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish.**

Aholining muhtoj qismini zamonaviy protez-ortopediya buyumlari va reabilitatsiya vositalari bilan ta’minlash darajasini 60 foizga yetkazish.

Majburiy ijtimoiy kafolatlar bo‘yicha qonunchilikni tizimlashtirish va takomillashtirish, belgilangan ijtimoiy himoyaning qat’iy ta’minlanishini nazorat qilish.

Majburiy ijtimoiy kafolatlardan, shu jumladan ijtimoiy himoya turlaridan foydalanish imkoniyatini sohani raqamlashtirish hisobiga kengaytirish, ushbu jarayoniga ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini joriy qilish.

**54-maqsad: Pensiya ta’minoti tizimini takomillashtirish.**

Fuqarolarning pensiya miqdorlari mamlakatning iqtisodiy ko‘rsatkichlariga muvofiq izchil oshib borishini ta’minlash.

Xalqaro tamoyil va standartlarga muvofiq ko‘p bosqichli va davlat tomonidan kafolatlangan pensiya ta’minoti tizimini joriy qilish.

Fuqarolardan ortiqcha hujjatlar talab qilmasdan idoralararo elektron ma’lumot almashinuvi asosida pensiya tayinlash tizimiga o‘tish.

**55-maqsad: Ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni aholiga yanada yaqinlashtirish va qulayligini oshirish maqsadida respublika hududlarida tibbiyot klasterlarini tashkil etish.**

Namangan, Farg‘ona, Sirdaryo, Qashqadaryo, Navoiy, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida tibbiyot klasterlarini tashkil etish.

**56-maqsad: Aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish, budjet mablag‘laridan samarali foydalanish, tibbiy xizmatlarni markazlashtirish va aholini tibbiy sug‘urtalash amaliyotini joriy qilish.**

Markazlashgan laboratoriya, sterilizatsiya va yuqori texnologik tekshiruvlar tizimini tashkil etish.

Sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish, aholi salomatligini saqlash va tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish dasturini 2022-2023-yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni, shuningdek, sog‘liqni saqlash sohasini raqamlashtirishning 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini amalga oshirish.

Aholini tibbiy sug‘urtalash tizimini bosqichma-bosqich joriy qilish.

**57-maqsad: Tibbiy asbob-uskunalarga texnik xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish.**

Davlat tibbiyot muassasalaridagi tibbiy asbob-uskuna va jihozlarga texnik xizmat ko‘rsatish tizimini yaratish.

Tibbiy asbob-uskunalarga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha alohida korxona va uning 13 ta hududiy bo‘limlarini tashkil etish.

**58-maqsad: Dori-darmon va tibbiy buyumlar muomalasini tartibga solish hamda aholiga arzon va sifatli mahsulotlar yetkazib berish tizimini takomillashtirish.**

Elektron retsept tizimini takomillashtirish va keng joriy etish hamda narxlarga rioya etilishini onlayn kuzatishning axborot tizimini yaratish.

Farmatsevtika mahsulotlarini markirovkalash tizimini joriy qilish.

Dori-darmon va tibbiy buyumlarni aholi uchun yetkazib berish tizimini olis hududlar va mahallalar ehtiyojlaridan kelib chiqib, zamonaviy mexanizmlar asosida takomillashtirish.

**59-maqsad: Birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatida aholiga malakali xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash, sohaga ajratiladigan mablag‘larni oshirish.**

Davlat budjetidan dori vositalari va tibbiy buyumlarga ajratilgan mablag‘larning 3 barobarga oshirilishini ta’minlash. Bunda asosiy e’tiborni xonadonbay tibbiy profilaktikani kuchaytirishga qaratish va “maqsadli” skrining o‘tkazish choralarini ko‘rish.

Tibbiy-sanitariya xizmatining jozibadorligini oshirish va sohani malakali kadrlar bilan ta’minlash.

Birlamchi tibbiy-sanitariya xizmati xodimlarining mehnatga haq to‘lash tizimini takomillashtirish.

Birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

Davlat tibbiyot muassasalarida dori-darmon va tibbiy buyumlar ta’minotini yanada yaxshilash hamda yetkazib berish va saqlash tizimini takomillashtirish.

**60-maqsad: Reproduktiv yoshdagi va homilador ayollar, bolalar uchun yuqori texnologik tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish.**

46 ta tumanlararo perinatal markazlarni tashkil etish, ularni kadrlar, zarur tibbiy texnika va buyumlar bilan ta’minlash.

Yuqori texnologik tibbiy yordam ko‘rsatish imkoniyatlarini kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish.

**61-maqsad: Tibbiy xizmatlardagi xususiy sektorning ulushini 25 foizga yetkazish.**

Xususiy tibbiyotni yanada rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash.

Tibbiy faoliyatni yuritishda bino va inshootlarning yerto'la qismidan foydalanish, shuningdek, laboratoriya va diagnostika bo'limlari faoliyatiga qo'yilgan talablarni yengillashtirgan holda xalqaro tajribadan kelib chiqib, belgilangan texnik jihatdan tartibga solish hujjatlarini qayta ko'rib chiqish.

Tibbiy faoliyat ixtisosliklarini tashkil etishda moddiy texnik baza va tibbiy asbob-uskunalarga belgilangan eng kam talablarni soddalashtirish.

**62-maqsad: Mamlakatda ishlab chiqariladigan dori-darmon va tibbiyot vositalarining ulushini 80 foizga yetkazish.**

Import mahsulotlar hajmini va tarkibini optimallashtirish hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash.

Zamonaviy farmatsevtika klasterlari hamda zonalarini tashkil etish va mavjudlarini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqish.

**63-maqsad: Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xalqaro maqomga ega laboratoriyalarini tashkil etish.**

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining 263 ta obyektlarini zarur asbob-uskunalar bilan jihozlash.

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining 249 ta obyektida qurilish, rekonstruksiya va ta'mirlash ishlarini olib borish.

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining kadrlar salohiyatini oshirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etish.

**64-maqsad: Hududlarda birlamchi tibbiy xizmatni "bir qadam" tamoyili asosida tashkil etish.**

Hududlardagi mavjud ehtiyoj, aholining takliflarini inobatga olgan holda 2022-2023-yillarda 61 ta oilaviy poliklinikalar, 215 ta oilaviy shifokor punktlarini tashkil etish.

Aholiga sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanishda yanada qulay sharoitlar yaratish maqsadida birlamchi tibbiy xizmatni mahallalarda tashkil etish uchun zarur choralarni ko'rish.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llagan holda aholiga masofadan turib tibbiy xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirish.

**65-maqsad: Malakali shifokorlarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1 000 AQSh dollari ekvivalentiga yetkazish.**

Tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to'lashda ko'rsatiladigan tibbiy xizmat turi va murakkabligi, shuningdek erishilgan natijaga ko'ra o'zgarishini nazarda tutuvchi tizim yaratish.

**66-maqsad: Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish.**

Nogironlik belgisi bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarishda teng sharoitlarni va ularni buzganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta’minlash.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini ta’minlash sohasidagi umume’tirof etilgan xalqaro norma va standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish.

Tibbiy-mehnat ekspertizasi va nogironlikni belgilashning shaffof, zamonaviy uslub va mezonlarini joriy etish, nogironligi bo‘lgan shaxslarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish darajasi va sifatini oshirish.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarning oilasi, jamiyat va davlat bilan o‘zaro aloqasini kuchaytirish, ularning qulay muhitda bo‘lishi, shahar yo‘lovchi transporti, ijtimoiy va boshqa infratuzilma obyektlaridan erkin foydalanishi uchun zarur sharoitlar yaratish.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta’minlovchi inklyuziv ta’lim va ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish.

Nogironlikni belgilashning ijtimoiy modeliga bosqichma-bosqich o‘tish.

**67-maqsad: Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanadigan fuqarolarning sonini oshirish.**

Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanadigan aholi sonini 2026-yilda 33 foizga chiqarish.

Respublika yoshlari o‘rtasida milliy sport turlarini ommalashtirish.

O‘zbekistonda sportning ommaviyligini oshirish maqsadida milliy sport turlari va xalq o‘yinlarini rivojlantirish.

Yurtimizning chekka hududlari va qishloqlarida sog‘lomlashtirish ishlarini yanada rivojlantirish.

Barpo etiladigan har bir “Yashil hudud”da yugurish, velosipedda harakatlanish uchun “Salomatlik yo‘laklari” hamda badminton, stritbol va vorkaut maydonchalarini tashkil etish.

Vazirlik, idora hamda tashkilotlar xodimlarini va aholini sport tadbirlariga jalb qilish, ular o‘rtasida musobaqalar tashkil qilish.

Milliy olimpiada sport o‘yinlarini o‘tkazish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Sport o‘yinlari o‘tkaziladigan sport obyektlari infratuzilmasini yaxshilash va zarur sport inventarlari bilan jihozlash.

Milliy olimpiada o‘yinlarini yuqori darajada tashkil etish hamda g‘olib va sovrindorlarni munosib rag‘batlantirish.

Milliy olimpiada o‘yinlariga tayyorgarlik ishlarining borishini ommaviy axborot vositalari orqali, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog‘ida keng yoritilishini tashkil etish.

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti hamda uning filiallariga qabul ko‘rsatkichlarini oshirish hisobiga faoliyat yuritayotgan oliy ma’lumotli trenerlarning amaldagi 54 foizlik ulushini 2022-yilda 62 foizga, 2026-yilda 85 foizga oshirish.

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti va uning filiallari bitiruvchilarini sport ta’limi muassasalariga jalb etish.

**68-maqsad: Olimpiya va Paralimpiya harakatini rivojlantirish.**

Olimpiya o‘yinlariga kiritilgan jamoaviy (futbol, gandbol, basketbol, voleybol, regbi, chim ustida xokkey, badminton, suv sporti turlari) va boshqa sport turlarini rivojlantirish.

Jamoaviy va boshqa sport turlari bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasining nufuzli xalqaro musobaqalarda ishtirok etishini ta’minlash.

Yozgi paralimpiya sport turlarini rivojlantirish. Bunda:

paralimpiya sportchilari orasida sog‘lom turmush tarzini yanada rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish. Xususan, mazkur tashabbusni xalqimizning imkoniyati cheklangan vakillari qatlamida targ‘ib qilish;

paralimpiya sport turlari ro‘yxatiga kiritilgan sport turlarini sport ta’lim muassasalarida tashkil etish orqali Parij-2024 Paralimpiya o‘yinlariga 100 dan ortiq litsenziyalarni qo‘lga kiritish.

Yoshlarni sportga jalb etish va ularni qamrab olish.

2026-yilga qadar qishki va ekstremal sport turlari, shu jumladan tog‘-chang‘i sportini rivojlantirish maqsadida eng ilg‘or va innovatsion texnologiyalarni jalb qilgan holda salohiyatli hududlarda zarur infratuzilmani yaratish.

Mavjud salohiyat va imkoniyatdan kelib chiqib, hududlarni qishki Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlariga sportchilarni tayyorlash bo‘yicha ixtisoslashtirish.

Qishki sport turlariga ixtisoslashtirilgan hududlarda tegishli sport turlarini rivojlantirish, milliy jamoa a’zolarini shakllantirish va 2023-yildan boshlab, xalqaro musobaqalarda ularning ishtirokini ta’minlash.

Qishki sport turlarini rivojlantirishni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash, 2026-yildagi qishki Olimpiya o‘yinlariga kamida 10 ta litsenziyani qo‘lga kiritish.

**69-maqsad: Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash.**

Jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo‘ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash.

Gender tenglikni ta’minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo‘llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish.

Xotin-qizlarning ta’lim va kasbiy ko‘nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko‘maklashish, tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish.

Hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda xotin-qizlarga ko‘rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini, ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini ta’minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish.

Turar joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta’minlash, turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash, daromadlarini ko‘paytirish borasida tizimli chora-tadbirlarni belgilash.

Og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko‘rsatish, ularni manzilli qo‘llab-quvvatlash.

“Ayollar daftari” bilan manzilli ishlash, mutasaddi tashkilotlar tomonidan xotin-qizlarning muammolari o‘z vaqtida bartaraf etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish.

**70-maqsad: Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish.**

Yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash.

Yoshlarning hayoti va sog‘lig‘ini saqlash, ular uchun malakali tibbiy xizmatdan foydalanish shart-sharoitlarini yaxshilash, yoshlar o‘rtasida tibbiy savodxonlikni oshirish va sog‘lom turmush tarzini mustahkamlash.

Yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish.

Yoshlar uchun ochiq va sifatli ta’limni ta’minlash, ta’limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta’lim olishini ta’minlash, hududlarda inklyuziv ta’lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish.

Yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish.

Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash.

Yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm,

fundamentalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoya qilish.

Yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish.

Iqtidorli va iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish.

Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish.

Yoshlarda sog‘lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek, yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish.

Yosh oilalarni ma’naviy va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish.

Yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish sohasida faoliyat olib boruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish.

## V. MA’NAVIY TARAQQIYOTNI TA’MINLASh VA SOHANI YANGI BOSQIChGA OLIB ChIQISh

**71-maqsad: Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari” g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish.**

“Yangi O‘zbekiston — ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirish.

Aholi o‘rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo‘yicha huquqiy-ma’rifiy tadbirlarni xalqimizning boy tarixi, ilmiy-madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlarni o‘rgatish bilan uyg‘un holda tashkil qilish.

Targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning ta’sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini ishlab chiqish hamda ularni o‘z vaqtida amalga oshirish choralarini ko‘rish.

O‘zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma’naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash.

Oila, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash.

Ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda xolis axborotlarni o‘z vaqtida berib borish orqali yolg‘on ma’lumotlar tarqalishining oldini olish.

“Mahalla — tuman — viloyat — respublika” prinsipi asosida hududlar kesimida ijtimoiy-ma’naviy muhitni optimallashtirish xaritasini shakllantirish, bu jarayonga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish.

Ma’naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish.

Maktablarni chinakam ma’naviyat va ma’rifat, madaniyat o‘chog‘iga aylantirish uchun ta’lim-tarbiyaning interaktiv usullarini qo‘llash.

Mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g‘oya asosida birgalikda kurashish, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash va shu asosda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash ko‘nikmasini shakllantirish.

“Yoshlar — Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari” shiori ostida “Yangi O‘zbekiston — Uchinchi Renessans” g‘oyasining ro‘yobga chiqarilishini ta’minlash.

**72-maqsad: Aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko‘rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda “Kitobsevar millat” umummilliy g‘oyasini ro‘yobga chiqarish.**

Aholiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda sohada yagona boshqaruv tizimini joriy etish.

**73-maqsad: Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish.**

IHT, IRSIKA, AYSESKO, YUNESKO kabi dunyoning nufuzli xalqaro tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot markazlari va universitetlari bilan hamkorlikda “Yangi O‘zbekiston — Uchinchi Renessans” shiori ostida xalqaro konferensiya, simpozium va anjumanlar tashkil etish.

Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma’naviy merosini keng targ‘ib qilish maqsadida yurtimizdan yetishib chiqqan allomalar qalamiga mansub 100 ta asarning xalqchil tarjimasini amalga oshirish, ular asosida ilmiy va ommabop risolalar yaratish.

Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish maqsadida O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash.

**74-maqsad: Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash.**

Milliy madaniy markazlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish.

Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasining izchil amalga oshirilishini ta’minlash.

Turli millat yoshlari uchun qo‘shimcha qulay shart-sharoitlar yaratish, ularda fuqarolik burchini anglash, vatanparvarlik, bag‘rikenglikka asoslangan millatlararo muomala madaniyatini yuksaltirish.

Xorijiy tillarda faoliyat yuritayotgan hamda millatlararo munosabatlar sohasida davlat siyosatini yoritayotgan ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash choralarini ko‘rish.

Xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini rivojlantirish maqsadida do‘stlik jamiyatlari faoliyatini takomillashtirish.

**75-maqsad: Tasviriy va amaliy san’at hamda dizayn yo‘nalishlarini rivojlantirish, aholining badiiy-estetik didini yuksaltirish.**

Atoqli O‘zbekiston xalq rassomlari va amaliy san’ati ustalarining namunali hayoti va ijodini keng targ‘ib qilish hamda ular xotirasini abadiylashtirish.

O‘zbekiston tasviriy va amaliy san’atini xalqaro darajada ommalashtirish.

Tasviriy va amaliy san’at hamda dizayn yo‘nalishlarida yetuk mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish.

**76-maqsad: Madaniyat va san’at sohalarini yanada rivojlantirish, madaniyat muassasalari va obyektlarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash.**

Madaniyat va san’at sohasi vakillari, ijodkorlar, shuningdek, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchi va xodimlarni moddiy qo‘llab-quvvatlash hamda ularning yashash sharoitlarini yaxshilash.

Teatr san’atini rivojlantirish va uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

Madaniyat markazlari faoliyatini takomillashtirish va ular tomonidan aholiga madaniy xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, shuningdek, ularning moddiy-texnika bazasini yaxshilash.

Hududlarda yangi madaniyat obyektlarini barpo etish va ularning samarali faoliyat olib borishini ta’minlash.

O‘zbek sirk san’atini yanada rivojlantirish va uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

Milliy madaniyatni xalqaro darajada ommalashtirishga qaratilgan tadbirlarni hududlarda o‘tkazishni joriy etish.

O‘zbek xalqi madaniyati va san’atini rivojlantirishga munosib hissa qo‘shgan atoqli ijodkor ziyolilar yubileylarini munosib nishonlash, hayoti va faoliyatini keng targ‘ib qilish, xotirasini abadiylashtirish.

Respublika hududida joylashgan madaniy meros obyektlarini saqlash, restavratsiya va konservatsiya qilish bilan bog‘liq kompleks tadbirlarni amalga oshirish.

**77-maqsad: O‘zbekiston tarixini o‘rganish va targ‘ib qilishni yanada rivojlantirish.**

Tarix fanini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish.

**78-maqsad: Milliy kino san'atini rivojlantirish.**

Kino san'atini jamiyatning ma'naviy, madaniy-ma'rifiy hayotida, jumladan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda strategik manba sifatida shakllantirish.

Kino sanoatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini bozor tamoyillari asosida takomillashtirish, shuningdek, xorijiy kinokompaniyalarni mamlakatga jalb qilish va hamkorlikda filmlar ishlab chiqarishni rivojlantirish.

Milliy multiplikatsiya industriyasini shakllantirish.

Kino sanoatini iqtisodiyotning alohida tarmog'i sifatida rivojlantirish, zamonaviy va yuqori texnologik moddiy-texnika bazasiga ega infratuzilmani yaratish.

Kinematografiya sohasida kadrlar tayyorlash, kino ijodkorlari va texnik xodimlari malakasini oshirishning samarali tizimini yaratish.

Milliy seriallar ishlab chiqarishni davlat tomonidan rag'batlantirish, animatsion filmlar ishlab chiqarishga yosh multiplikator va animatorlarni keng jalb qilish.

Sohada mualliflik huquqining kafolatli himoya qilinishini ta'minlash, kinoprokat tizimini rivojlantirish va milliy filmlarni jahon kino bozorlariga olib chiqish.

## VI. MILLIY MANFAATLARDAN KELIB ChIQQAN HOLDA UMUMBAShARIY MUAMMOLARGA YONDAShISh

**79-maqsad: Aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish.**

Xalqaro maydonda atrof muhitga oid tashabbuslar, shu jumladan Butunjahon ekologiya xartiyasini ishlab chiqish tashabbusini ilgari surish.

Atrof muhitga ta'sir xavfi yuqori daraja (I toifa)dagi obyektlarning ifloslantiruvchi manbalaridan avtomatik ravishda namunalar olish tizimini tatbiq etish.

Atrof muhitning ifloslanish darajasini baholash mexanizmlarini takomillashtirish, atrof muhitni kuzatish, uning ifloslanish darajasini prognoz qilish, davlat ekologik nazoratini doimiy axborot bilan ta'minlash, ifloslantiruvchi manbalarning holati va atrof muhitga ta'siri ustidan monitoringni amalga oshirish.

Respublika hududida amalga oshirilayotgan xo'jalik va boshqa turdagi faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini belgilash yuzasidan davlat ekologik ekspertizasini o'tkazish.

**80-maqsad: Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish.**

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida har yil kamida 200 million tup daraxt ekish. “Yashil makon” umummilliy loyihasi tashabbuslariga mos tarzda respublikaning 10 ta hududida aerobiologik monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish.

Maishiy chiqindilarni yig‘ishni 100 foizga, ularni qayta ishlash darajasini 2026-yilga qadar 21 foizdan 50 foizga yetkazish.

Respublika bo‘yicha 51 ta yer usti tabiiy suv obyektlari (daryolar, kichik daryolar va tabiiy ko‘llar)ning sanitariya-muhofaza zonalari va sohil bo‘yi mintaqalarini belgilash ishlarini yakunlash.

Toshkent shahrini aholiga qulay, ekologik toza va yashash uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo‘lgan hududga aylantirish, ko‘kalamzorlashtirish darajasini 30 foizga yetkazish.

Orol dengizining qurigan tubida qo‘shimcha 500 ming gektar yashil maydonlarni barpo etib, 2026-yil yakuniga qadar ularning umumiy hajmini 2,5 million gektarga yoki hududning 78 foiziga yetkazish.

Orolbo‘yida xalqaro “Yashil iqlim” va Global ekologik jamg‘armalarning bioxilma-xillik, iqlim o‘zgarishi va tuproq yemirilishining oldini olishga qaratilgan dasturlari asosida 300 million AQSh dollari qiymatidagi loyihalarni amalga oshirish.

Shahar va tuman markazlarida har 50 — 100 ming aholi uchun “jamoat parklari”ni tashkil etish.

Orolbo‘yi mintaqasida yashovchi aholini ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish.

**81-maqsad: O‘rmonlar maydonini kengaytirish.**

Respublika hududlarida o‘rmonlar maydonini kengaytirish va o‘rmon fondi yerlaridan samarali foydalanish.

O‘rmon fondining tog‘ va tog‘oldi hududlari plantatsiyalarini barpo qilish.

Cho‘l hududlarida o‘simliklarni ko‘paytirish, hududlarda himoya o‘rmonzorlari barpo etish.

Sug‘oriladigan yerlarni eroziyadan va melioratsiya obyektlarini qum ko‘chishidan saqlash uchun ihota daraxtzorlarini barpo etish.

Davlat o‘rmon fondi yerlarida o‘rmonlardan foydalanish, o‘rmon fondini kengaytirishni tartibga solish.

O‘rmonlarni qo‘riqlash va muhofaza qilish mexanizmini tubdan qayta ko‘rib chiqish.

**82-maqsad: Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini shakllantirish.**

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlashga imkon beradigan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha samarali davlat siyosatini amalga oshirish.

Ekstremizm va terrorizmni keltirib chiqaruvchi omillarning oldini olishga qaratilgan preventiv mexanizmlarni takomillashtirish,

ijtimoiy-ma’naviy muhitni yaxshilash, yot g‘oyalar ta’sirini oldini olish va ularning ta’siriga tushib qolganlar bilan tizimli ishlash orqali ularning muammolarini bartaraf etish.

Aholi, ayniqsa yosh avlodda terrorizm va ekstremizm mafkurasiga qarshi qat’iy va barqaror immunitetini shakllantirish.

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning xalqaro-huquqiy asoslarini takomillashtirish hamda xorijiy davlatlar, mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar bilan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish sohasidagi hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini kengaytirish.

Diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi, shuningdek, chet elga uzoq vaqtga ketayotgan hamda yashab kelayotgan fuqarolar bilan shug‘ullanuvchi boshqa idoralarning kadrlar salohiyati va resurslarini mustahkamlash.

Xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ekstremizm, terrorizm va ularni moliyalashtirishga qarshi kurash sohasida axborot hamda tajriba almashish.

Faoliyati ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga qaratilgan xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda faol ishtirok etish.

Markaziy Osiyoda BMTning Global aksilterror strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha hamkorlikdagi sa’y-harakatlarni birgalikdagi harakatlar rejasi doirasida muvofiqlashtirish.

Markaziy Osiyoda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha birgalikdagi ishlar doirasida axborot almashinuvi va hamkorlikni rivojlantirishga yordam beruvchi xalqaro tashabbuslarni amalga oshirishda O‘zbekistonning rolini kengaytirish.

Dunyo hamjamiyati va mintaqaviy tashkilotlar e’tiborini Afg‘onistonda tinchlik va hamjihatlikni ta’minlashga jalb qilish borasidagi tashabbuslarni jadallashtirish va ushbu mamlakatni mintaqaviy hamkorlik jarayonlariga, shu jumladan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga jalb qilish.

**83-maqsad: Davlat xizmatida halollik standartlarini joriy etish.**

Davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulklarini deklaratsiya qilish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish.

Davlat xizmatida manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish bo‘yicha samarali mexanizmlarni yaratish, korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatda ochiqlikni ta’minlash va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish.

**84-maqsad: Korrupsiyaga moyil soha va tarmoqlarni aniqlash, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish.**

Korrupsiyaga qarshi kurashishga zamonaviy axborot, shu jumladan sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, jamoatchilik nazoratini olib borishni qo‘llab-quvvatlash.

Korrupsiyaga qarshi kurashish amaliyotida tizimli preventiv choralarni kuchaytirish.

Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish.

Normativ-huquqiy hujjatlarning “korrupsiyadan xoli qonunchilik” tamoyili asosida ishlab chiqilishini ta’minlash.

**85-maqsad: Mamlakatda yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026-yil yakuniga qadar kambag‘allikni kamida 2 baravarga qisqartirish.**

Kambag‘allikni qisqartirish davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Norasmiy ishlayotgan 2,5 million nafar fuqaroning bandligini legallashtirishga yordam berish orqali ularda ijtimoiy kafolat va imtiyozlardan to‘liq foydalanish imkoniyatini yaratish.

Ayollar orasidagi ishsizlik darajasini 2 baravar kamaytirish, 700 mingdan ziyod ishsiz xotin-qizlarni davlat hisobidan kasb-hunarga o‘qitish. Ish bilan band bo‘lmagan xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish va o‘zini o‘zi band qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko‘rsatishda mahalliy darajada (“mahallabay” tamoyili asosida) ijtimoiy ishlarni olib borish mexanizmini yo‘lga qo‘yish.

Hududlar, shaharlar va tumanlar kesimida kambag‘al toifadagi oilalar, ayollar va yoshlarni yagona elektron hisobga olish tizimini yaratish, kambag‘allikning qayta tiklanish xavfini bartaraf etish. Hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish.

Ijtimoiy nafaqa tayinlash mezonlariga javob beradigan barcha ehtiyojmand aholining kamida 85 foizini ijtimoiy yordam dasturlari bilan qamrab olish. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar va aholi qatlamlariga, shuningdek, vaqtinchalik og‘ir sharoitga tushib qolgan fuqarolarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat ijtimoiy yordamini ko‘rsatish.

**86-maqsad: Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasini ta’minlash hamda samarali migratsiya siyosatini yuritish.**

Noqonuniy tashqi mehnat migratsiyasi va odam savdosiga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish.

Xorijga ishlashga ketishdan oldin fuqarolarni kasb-hunarga va chet tillarga o‘qitish, ularga kasbiy malakani tasdiqlovchi xalqaro

sertifikatlar berish borasidagi chora-tadbirlarni hayotga tizimli ravishda va jadal tatbiq etish.

Mehnat migrantlarini moliyaviy va ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash, ularning hayoti va sogʻligʻini sugʻurtalash amaliyotini kengaytirish.

Mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarni reintegratsiya qilish, shu jumladan ularning bandligini ta'minlash, kasbiy malakasini oshirish va tadbirkorlik tashabbuslarini ragʻbatlantirish.

Xorijiy davlatlarda ishlash istagida boʻlgan kamida 300 ming nafar fuqaroni kasb-hunar va xorijiy tillarga oʻqitish. Xavfsiz, tashkillashtirilgan xorijiy mehnat migratsiyasiga 400 ming nafar fuqaroni yuborishni tashkil etish, xorijda mehnat qilayotgan fuqarolar haq-huquqlarini ta'minlashda manzilli koʻmak koʻrsatish.

"Oʻz kelajagimga oʻzim investor" loyihasini samarali amalga oshirishni ta'minlash.

**87-maqsad: "Vatandoshlar" jamoat fondi orqali xorijiy davlatlardagi yurtdoshlarimiz bilan doimiy va samarali aloqalar oʻrnatish.**

Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarni Oʻzbekiston hududida tadbirkorlik, investitsiyaviy, ilmiy, ma'rifiy va madaniy faoliyat bilan shugʻullanishga faol jalb qilish.

Xorijdagi vatandoshlar va ular tomonidan tuzilgan jamoat birlashmalarni qoʻllab-quvvatlash. Yurtimizning boy ilmiy, madaniy va ma'naviy merosini keng targʻib qilish va ommalashtirish, vatandoshlarga madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda koʻmaklashish.

Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik oʻrnatish va olib borish sohasida yuzaga kelayotgan muammolarni tizimli asosda tahlil qilib borish va ularning yechimi yuzasidan aniq takliflar ishlab chiqish.

Xorijda oʻzbek tili, madaniyati va an'analarini saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyatni qoʻllab-quvvatlash, yurtimizning boy ilmiy, madaniy va ma'naviy merosini keng targʻib qilish va ommalashtirish.

Xorijdagi vatandoshlarning salohiyatini Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishga jalb etish va ularni ragʻbatlantirish choralarini koʻrish.

**88-maqsad: Pandemiyalarga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish.**

Pandemiya va shu kabi ofatlar bilan bogʻliq jarayonlarning barvaqt oldini olish, vaziyatni har tomonlama chuqur tahlil qilib, boʻlajak xavf-xatarlarni, ular bilan bogʻliq muammolarni oldindan prognoz qilish, ularning yechimiga aniq reja va choralar bilan tayyor turish tizimini yaratish.

Kasalliklarni yengish yo‘lida barcha davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish.

Bemorlarni davolash bo‘yicha telemeditsina orqali olib borilayotgan muloqotlarni kengaytirish, xalqaro tajribalar va tavsiyalarni faol joriy etish.

Koronavirus qaytadan tarqalishining oldini olish hamda uning iqtisodiyot va insonlar hayotiga salbiy ta’sirini imkon qadar cheklash uchun aholining eng muhim hayotiy ehtiyojlarini ta’minlash, narx-navoning oshib ketmasligiga erishish va kam ta’minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarni davom ettirish.

## VII. MAMLAKATIMIZ XAVFSIZLIGI VA MUDOFAA SALOHIYATINI KUChAYTIRISh, OChIQ, PRAGMATIK VA FAOL TAShQI SIYOSAT OLIB BORISh

**89-maqsad: Fuqarolarning axborot olish va tarqatish erkinligi borasidagi huquqlarini yanada mustahkamlash.**

Axborot sohasini tartibga soluvchi yagona tizimlashtirilgan normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish.

Fuqarolarning axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish madaniyatini oshirish.

Shaxsiy va sir saqlanishi lozim bo‘lgan ma’lumotlarni Internet tarmog‘ida oshkor qilish bilan bog‘liq daxlsizlik huquqi buzilishining oldini olish.

Kiberjinoyatchilikning oldini olish tizimini yaratish.

**90-maqsad: Davlatning mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligini, uning imkoniyatlari va qobiliyatini kuchaytirish.**

Barcha bo‘g‘indagi hokimiyat organlari rahbarlarining qo‘shinlar kundalik hayotida, harbiy shaharchalar barpo etish, ularning infratuzilmasini yaxshilash, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda faol ishtirok etishini ta’minlash.

Harbiy xizmatni o‘tab qaytgan yoshlarning ijtimoiy muammolarini hal etish, ularni ish bilan ta’minlashga alohida e’tibor qaratish, Qurolli Kuchlarning barcha davlat idoralari, muassasa va korxonalar uchun yetuk kadrlar tayyorlaydigan maktabiga aylanishiga erishish.

Mamlakat harbiy xavfsizligini ta’minlash va mudofaa salohiyatini mustahkamlash borasidagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish.

Qurolli Kuchlar yagona avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini yaratish va raqamlashtirishni yanada takomillashtirish.

Qurolli Kuchlarda yagona axborot-kommunikatsiya tizimini yaratish va axborot xavfsizligini ta’minlash.

Mudofaa vazirligi qo‘shinlarining jangovar shayligi va tayyorgarligi hamda o‘quv moddiy-texnika bazasini yanada takomillashtirish.

Fuqarolarning harbiy xizmatni o‘tash tartibini yanada takomillashtirish.

Oliy harbiy ta’lim muassasalariga nomzodlarni saralash va tanlab olish tizimini yanada takomillashtirish.

Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida rahbar lavozimlariga kadrlar zaxirasini yaratish tizimini rivojlantirish.

Mudofaa vazirligi tizimida geraldika ishlarini samarali yo‘lga qo‘yish.

Qo‘shinlarni zamonaviy qurol-aslaha, harbiy va maxsus texnika hamda jihozlar bilan ta’minlash.

**91-maqsad: Harbiy xizmatchilar, ularning oila a’zolarining ijtimoiy himoyasini har tomonlama kuchaytirish.**

Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ularga ko‘rsatilayotgan tibbiy ta’minot sifatini yanada oshirish.

Qurolli Kuchlarda axloqiy-ruhiy ta’minotni va harbiy psixologlar institutini yanada takomillashtirish hamda harbiy xizmatchilarning jangovar ruhiyatini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilash.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tadbirlarini yanada kuchaytirish.

Mudofaa vazirligi harbiy qism va muassasalarida mavjud xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oila a’zolari bilan ishlash bo‘yicha yetakchi mutaxassislar ish faoliyati samaradorligini oshirish.

**92-maqsad: Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish.**

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish sohasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Respublika maxsus qutqaruv markazini INSARAG (qidiruv-qutqaruv masalalari bo‘yicha xalqaro maslahat guruhi) standartlari asosida tayyorgarlikdan o‘tkazish.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi aviatsiya xizmatini tashkil etish.

Respublikaning turistik zonalarida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va tezkor bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarni tizimlashtirish.

Aholini favqulodda vaziyatlarda xabardor qilish tizimini modernizatsiyalash.

Respublikaning olis hududlarini professional va ko‘ngilli yong‘in-qutqaruv bo‘linmalari bilan qamrab olish ko‘rsatkichini yaxshilash.

Yong‘in-texnik vositalarni ishlab chiqarishga xususiy sektorni jalb etish.

O‘rmon yong‘inlarini bartaraf etish tadbirlari samaradorligini oshirish.

**93-maqsad: Mamlakatning xalqaro munosabatlardagi teng huquqli subyekt sifatidagi rolini oshirish.**

Hamkor mamlakatlar bilan hamda xalqaro tashkilotlar doirasida mintaqaviy va global masalalar bo‘yicha muvozanatli, doimiy muloqot olib borish, ular bilan ikki va ko‘p tomonlama uchrashuvlar o‘tkazish, siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda hamda turli darajadagi maslahatlashuvlarni tashkil etish.

Yetakchi davlatlar bilan keng qamrovli hamkorlikni strategik darajaga olib chiqish hamda ular bilan kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitimlarni kelishish.

Yirik tadbirlarda (xalqaro tashkilotlar doirasida va xorijiy hamkorlar bilan sherikchilik asosida hamda ikki tomonlama hamkorlik darajasidagi konferensiya, forum, seminar va davra suhbatlari) mintaqaviy va xalqaro masalalar bo‘yicha O‘zbekiston pozitsiyasi hamda umumjahon miqyosidagi tashabbuslarini ilgari surish.

**94-maqsad. Markaziy Osiyoda xavfsizlik, savdo-iqtisodiy, suv, energetika, transport va madaniy-gumanitar sohalardagi yaqin hamkorlikni sifat jihatidan yuqori bosqichga olib chiqish.**

Markaziy Osiyo davlatlari bilan oliy darajadagi muloqot va ikki tomonlama hamkorlikning barcha formatdagi mexanizmlari asosida (hukumatlararo komissiyalar, siyosiy maslahatlashuvlar, parlamentlararo hamkorlik komissiyasi va boshqalar) yig‘ilishlarni tashkil etish.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlarini har yili muntazam tashkil qilishni ta’minlash va ularda faol ishtirok etish.

Markaziy Osiyo bo‘yicha mintaqaviy hamkorlik strategiyasini ishlab chiqish ishlarini boshlash.

Mintaqaviy tashkilotlar doirasida O‘zbekistonning milliy manfaatlarini faol ilgari surish.

O‘zbekiston Respublikasining chegaraoldi nazorat-o‘tkazish punktlarini rekonstruksiya qilish va kengaytirish orqali ularning o‘tkazuvchanligini oshirish.

Markaziy Osiyoda ekologiya, atrof-muhitning ifloslanishini oldini olish va tabiatni muhofaza qilish borasida hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish.

O‘zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari muzeylari hamda arxivlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni kengaytirish, ikki mamlakat tarixi va madaniyatini aks ettiruvchi kataloglarni birgalikda nashr etish.

Turizm sohasida yangi voqelik va epidemiologik talablarni hisobga olgan holda muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlarni qabul qilish.

Markaziy Osiyo davlatlarida Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi muxbirlik punktlarini ochish.

Oʻzbekistonning Yevropa mamlakatlari va Yevropa Ittifoqi (YI) institutlari bilan savdo-iqtisodiy, suv, energetika, transport va madaniy-gumanitar sohalardagi aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan hamkorlik shakllarini qoʻllab-quvvatlash.

**95-maqsad: An’anaviy hamkorlarimiz bilan munosabatlarni yanada rivojlantirish, tashqi aloqalar geografiyasini kengaytirishga ustuvor ahamiyat qaratib, iqtisodiy diplomatiyani kuchaytirish.**

Oliy darajadagi tashriflar orqali Yevropa mamlakatlari bilan hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish.

Oʻzbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, chet ellarda mamlakatimizning yangi diplomatik vakolatxonalarini ochish.

Milliy manfaatlarni ilgari surish va himoya qilishda iqtisodiy diplomatiya samaradorligini oshirish va uni faollashtirish.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi an’anaviy strategik sheriklar bilan hamkorlikni kengaytirish (Xitoy, Koreya Respublikasi, Yaponiya).

Osiyo-Tinch okeani mamlakatlarining istiqbolli bozorlariga eksport hajmi va nomenklaturasini oshirish.

AQSh, Kanada va Amerika mamlakatlari bilan strategik va har tomonlama hamkorlik aloqalarini kengaytirish.

AQSh ishbilarmon doira vakillari bilan investitsion, eksport va ilgʻor texnologiyalar sohalaridagi hamkorlikni kuchaytirish.

Janubiy Osiyo, Yaqin, Oʻrta Sharq va Afrika mintaqasidagi hamkorlar bilan mavjud aloqalarni yanada kengaytirish (Saudiya Arabistoni, BAA, Quvayt, Qatar, Pokiston, Hindiston, Eron).

Arab davlatlari (BAA, Saudiya Arabistoni, Quvayt, Qatar, Misr) bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalarda oʻzaro hamkorlikni jadallashtirish.

Oʻzbekistonning Afgʻoniston bilan koʻp qirrali munosabatlarini rivojlantirish va uning ijtimoiy-iqtisodiy tiklanishiga koʻmaklashish.

Janubiy Osiyo, Yaqin, Oʻrta Sharq va Afrika mamlakatlarining istiqbolli bozorlariga eksport hajmi va nomenklaturasini oshirish.

MDH mamlakatlari doirasidagi an’anaviy strategik sheriklar bilan ikki va koʻp tomonlama hamkorlikni kengaytirish.

MDH mamlakatlarining istiqbolli bozorlariga eksport hajmi va nomenklaturasini oshirish.

**96-maqsad: Oʻzbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti organlari va institutlari, global va mintaqaviy iqtisodiy, moliyaviy va gumanitar tashkilotlardagi faoliyatini kuchaytirish.**

O‘zbekistonni BMT tuzilmalari orqali dunyo hamjamiyatiga keng tanitish.

O‘zbekiston Rahbariyatining BMT doirasidagi tashabbuslarini amalga oshirishni ta’minlash.

BMT va uning muassasalari bilan iqtisodiy-moliyaviy va konsultativ hamkorlikni rivojlantirish.

BMT va uning ixtisoslashgan muassasalari bilan madaniy-gumanitar hamkorlikni jadallashtirish.

BMT va uning ixtisoslashgan muassasalari doirasida o‘tkaziladigan siyosiy-diplomatik va targ‘ibot-tashviqot tadbirlari miqyosini kengaytirish.

BMTning “Inson huquqlari yo‘lida harakatga da’vat” tashabbusini ilgari surish uchun barcha sheriklar bilan yaqin hamkorlikni davom ettirish.

**97-maqsad: Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish va Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi bilan integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish.**

Jahon savdo tashkilotiga a’zo davlatlar bilan muzokaralar o‘tkazish.

O‘zbekistonlik mutaxassislarning Jahon savdo tashkiloti va ko‘p tomonlama savdo tizimi sohasida salohiyatini oshirish.

Texnik jihatdan tartibga solish, sanitariya va fitosanitariya choralari va intellektual mulk himoyasi sohalarida milliy qonunchilikni Jahon savdo tashkiloti bitimlarining talablariga muvofiqlashtirish bo‘yicha tegishli takliflar ishlab chiqish.

O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lishining metallurgiya, to‘qimachilik, oziq-ovqat, avtomobil ishlab chiqarish sohalariga ta’sirini o‘rganish.

O‘zbekiston Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lishining milliy iqtisodiyotga ta’sirini o‘rganish.

Jahon savdo tashkiloti qoidalariga muvofiq bo‘lgan ichki bozorni notarif choralar orqali himoya qilish tizimini rivojlantirish.

Jahon savdo tashkiloti qoidalariga muvofiq bo‘lgan eksportni qo‘llab-quvvatlash va subsidiyalash choralarini ishlab chiqish.

Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi bozoriga samarali kirish uchun texnik jihatdan tartibga solish va standartlashtirish masalalari bo‘yicha milliy siyosatni Ittifoq tajribasi asosida yanada takomillashtirish.

Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi to‘g‘risidagi shartnomani chuqur tahlil qilish va tegishli takliflarni ishlab chiqish.

Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqining umummilliydan ustuvor bo‘lgan savdo siyosatini hamda uchinchi davlatlar bilan kelishuvlarini o‘rganish.

**98-maqsad: Jahon hamjamiyatida mamlakatimiz imidjini oshirishga qaratilgan axborotlar yetkazish samaradorligini oshirish.**

“Dunyo” axborot agentligi faoliyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash choralarini ko‘rish.

Jahondagi yetakchi axborot agentliklari bilan hamkorlikni yanada jadallashtirish.

O‘zbekiston imidjini jahon sahnasida ilgari surishni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar majmuini tayyorlash va amalga oshirish, mamlakatimizda islohotlarning borishi, jamiyatni demokratik yangilash jarayonlari haqida xolis axborot tarqatishning samarali davom ettirish.

Xorijiy davlatlarda o‘zbek tili, madaniyati va milliy an’analarimizni keng ommalashtirish, gumanitar aloqalarni mustahkamlashdan iborat bo‘lgan Alisher Navoiy xalqaro institutini tashkil etish.

Xorijda keng axborot kampaniyasini o‘tkazish, jumladan, nufuzli xorijiy ommaviy axborot vositalarida O‘zbekiston haqidagi materiallarni e’lon qilishni tashkil etish uchun O‘zbekiston Respublikasining asosiy diplomatik vakolatxonalariga moliyaviy resurslar ajratish.

Yevropa mamlakatlarining siyosiy-diplomatik, savdo-iqtisodiy, ishbilarmon, madaniy-gumanitar va tahliliy doiralari vakillari bilan doimiy muzokaralar olib borish, ularga O‘zbekistonda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar to‘g‘risida xolis axborot yetkazish.

Xorijda keng maqsadli targ‘ibot tadbirlarini, jumladan, “O‘zbekiston madaniyat kunlari”, davra suhbatlari, ko‘rgazmalarni o‘tkazish.

Chet ellarda O‘zbekistonning yutuqlarini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish uchun Vatandoshlar resurslarini jalb qilish.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarni xalqaro media makonda xolisona yoritishga qaratilgan hamkorlikni kuchaytirishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarining o‘zaro hamkorligi va sohada mavjud muammolarni o‘rganish, ularni bartaraf etish hamda istiqbollarni belgilab olish uchun qulay media-maydon yaratish.

Xalqaro axborot bozorlariga chiqish, O‘zbekistonning ijobiy imidjini ilgari surish mexanizmlari, vositalari va kanallarini birgalikda ishlab chiqish, xalqaro maydonda PR-sheriklik loyihalarini amalga oshirish maqsadida yetakchi xorijiy ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro aloqalarni rivojlantirish va hamkorlik aloqalarini o‘rnatish.

**99-maqsad: Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.**

Janubiy Osiyo, Yaqin, Oʻrta Sharq va Afrika davlatlari bilan iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlikning huquqiy asoslarini takomillashtirish (Saudiya Arabistoni, BAA, Quvayt, Qatar, Pokiston, Hindiston, Eron).

MDH hududidagi va Amerika mintaqasidagi kuchli iqtisodga erishgan davlatlar bilan iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlikning huquqiy asoslarini takomillashtirish.

Oʻzbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyatini tartibga solishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish.

Diplomatik xizmat faoliyatini zamon talablaridan kelib chiqib qayta koʻrib chiqish.

Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bilan bogʻliq munosabatlarni tartibga solish tizimini takomillashtirish.

Oʻzbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va koʻp tomonlama hamkorligining shartnomaviy-huquqiy asoslarini mustahkamlash boʻyicha takliflar ishlab chiqish va ularni amalga oshirishni muvofiqlashtirish.

Oʻzbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarini yagona tarzda hisobga olish, xatlovdan oʻtkazish va ularning amalga oshirilishini monitoring qilishga moʻljallangan elektron maʼlumotlar bazasini ishlab chiqish.

**100-maqsad: Oʻzbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari tomonidan Oʻzbekistonning chet ellardagi fuqarolariga xizmat koʻrsatish tizimini takomillashtirish.**

Tashqi ishlar vazirligi, xorijdagi Oʻzbekiston Respublikasi va chet el fuqarolariga konsullik xizmatlarini koʻrsatishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish.

Oʻzbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalarining xizmat koʻrsatish qamrovini kengaytirish.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoniga
2-ILOVA

**2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulugʻlash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid**
DAVLAT DASTURI

*Oldingi tahrirga qarang.*

| T/r | Ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **I. INSON QADRINI YUKSALTIRISh VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISh ORQALI XALQPARVAR DAVLAT BARPO ETISh**<br><br>*(Mas’ullar — T. Narbayeva va N. Ismoilov)* | | | | | | | |
| **1-maqsad. Mahalla instituti faoliyatining samaradorl�gini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo‘g‘iniga aylantirish.** | | | | | | | |
| 1. | **Hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda** mahallalarning **vakolatlarini kengaytirish**. | 1. Mahallalar tomonidan hal qilinadigan ijtimoiy-iqtisodiy masalalarning ro‘yxatini tuzish amaliyotini yo‘lga qo‘yish.<br><br>2. Mahallaning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2022-yil iyun | Hisob-kitoblarga asosan | Bosh vazir o‘rinbosari<br><br>**J. Qo‘chqorov**,<br><br>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi o‘rinbosari | Moliya vazirligi<br><br>**T. Ishmetov**,<br><br>Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi<br><br>**R. Mamatov,**<br><br>Axborot texnologiyalari vazirligi |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | **O. Saliyev** | **Sh. Shermatov** |
| 2. | Mahalladan turib **barcha davlat organlariga murojaat qilish** hamda ularning rahbarlari bilan **muloqot qilish tizimini** yaratish. | 1. Aholining davlat organlari va tashkilotlariga murojaat qilish hamda ularning rahbarlari bilan videoaloqa orqali muloqotni bosqichma-bosqich tashkil etish.<br><br>Bunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Xalq qabulxonalarining mahallalar bilan samarali aloqalarini yo‘lga qo‘yish.<br><br>2. Davlat va ijtimoiy xizmatlarni bevosita mahallada ko‘rsatish amaliyotini yo‘lga qo‘yish.<br><br>3. Mahalla faoliyatida qog‘ozbozlikni kamaytirish maqsadida taqdim etilishi lozim bo‘lgan hisobotlar xatlovdan o‘tkazilib, keskin kamaytirish hamda ularning tugal ro‘yxatini tasdiqlash, shuningdek, ularni to‘ldirish va taqdim etish jarayonini to‘liq raqamlashtirish. | Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari | 2022-yil sentyabr | Hisob-kitoblarga asosan | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi o‘rinbosari<br><br>**O. Saliyev**,<br><br>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi o‘rinbosari<br><br>**A. Usmanov**,<br><br>Bosh vazir | Vazirlar Mahkamasi,<br><br>Axborot texnologiyalari vazirligi<br><br>**Sh. Shermatov**,<br><br>Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi<br><br>**R. Mamatov**,<br><br>Adliya vazirligi<br><br>**R. Davletov** |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | maslahatchisi — IT-texnologiyalar telekommunikatsiyalar va innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalari departamenti boshlig‘i<br><br>*(lavozim bo‘yicha)* | |
| | | 3. **“Ijtimoiy himoya yagona reyestri”** axborot tizimida arizalarni elektron ko‘rinishda onlayn rejimida 2023-yil yakuniga qadar **70 — 80 foiz** qabul qilishni ta’minlash bo‘yicha choralarni ko‘rish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2022-yil yakuniga qadar | Hisob-kitoblarga asosan | Bosh vazir o‘rinbosari<br><br>**J. Qo‘chqorov**, | Moliya vazirligi<br><br>**T. Ishmetov,**<br><br>Axborot texnologiyalari |
| | | 4. Mahalla orqali rasmiylashtiriladigan va olinadigan barcha turdagi ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordamni tayinlash bo‘yicha hujjatlarni onlayn (elektron) tarzda taqdim etish tizimini joriy etish. | Tashkiliy-huquqiy chora- | 2022-yil iyun | Hisob-kitoblarga asosan | | |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | tadbirlar | | | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi oʻrinbosari **O. Saliyev** | vazirligi **Sh. Shermatov,** Adliya vazirligi **R. Davletov** |
| 3. | Fuqarolarning **oʻz mahallasi hayotidagi ishtirokini kuchaytirish** ham da davlat organlari va mahallalar oʻrtasida **toʻgʻridan-toʻgʻri aloqalarni** ta’minlash. | 1. Mahallalarda **aholi bilan ishlashga qaratilgan jarayonlarni raqamlashtirish** orqali **“Ijtimoiy mahalla”** tizimini yaratish**.**<br><br>2. **“Ijtimoiy mahalla”** tizimi doirasida mahallalardagi shart-sharoitlar, infratuzilma va obyektlar ahvoli, qurilish va obodonlashtirish ishlarining borishi, ekologik vaziyat va boshqa masalalarni **fuqarolar tomonidan virtual monitoring (mobil ilova, ijtimoiy tarmoqlar va h.k.) qilish** amaliyotini joriy etish.<br><br>3. **“Ijtimoiy mahalla”** tizimi orqali mahallada ahvolni oʻrganish yuzasidan ijtimoiy soʻrovlar oʻtkazish amaliyotini yoʻlga qoʻyish.<br><br>4. Mahallalarning oʻz hududlarida joylashgan **kommunal, bandlik, soliq, obodonlashtirish sohalari** | Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari | 2022-yil may | Hisob-kitoblarga asosan | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi oʻrinbosari **O. Saliyev**, Bosh vazir maslahatchisi — IT-texnologiyala | Mahalla va oilani qoʻllab-quvvatlash vazirligi **R. Mamatov**, Adliya vazirligi **R. Davletov**, Axborot texnologiyalari vazirligi |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | **va ta’lim muassasalari bilan aloqalar samaradorligini qayta ko‘rib chiqish.** | | | | r telekommunikatsiyalar va innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalari departamenti boshlig‘i<br>*(lavozim bo‘yicha)* | **Sh. Shermatov** |
| 4. | **Mahallalarning jamoatchilik bilan aloqalari**ni kuchaytirish choralarini ko‘rish. | Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va messendjerlarda mahalla yuzasidan bildirilayotgan tanqidiy axborotlar bilan ishlash, shu jumladan ko‘tarilayotgan muammolarni hal etishning samaradorligini oshirish bo‘yicha kompleks choralar ko‘rish, mutasaddi vazirlik va idoralar bilan o‘zaro axborot almashish tizimini takomillashtirish. | Tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar | 2022-yil iyun | - | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi o‘rinbosari<br>**O. Saliyev**, | Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi<br>**R. Mamatov**,<br>Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | Bosh vazir maslahatchisi — IT-texnologiyalar telekommunikatsiyalar va innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalari departamenti boshlig‘i<br><br>*(lavozimi bo‘yicha)* | agentligi<br><br>**D. Saidjonov** |
| 5. | **Hokim yordamchilari faoliyati**ni samarali yo‘lga qo‘yishga ko‘maklashish. | Mahalla hududida, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik asosida sport va madaniy inshootlar, ijodiy klublar, bandlikka ko‘maklashish va o‘qitish markazlari, tadbirkorlik obyektlari kabi infratuzilmani yaratishni nazarda tutuvchi hokim yordamchilari faoliyati samaradorligini yanada | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2022-yil may | Hisob-kitoblarga asosan | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti masl | Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | oshi�ishga qaratilgan namunaviy konsepsiyasini tasdiqlash. | | | | ahatchisi o‘rinbosari<br><br>**O. Saliyev**,<br><br>Bosh vazir maslahatchisi — IT-texnologiyalar telekommunikatsiyalar va innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalari departamenti boshlig‘i<br><br>*(lavozim bo‘y* | vazirligi<br><br>**I. Norqulov** |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | *icha )* | |
| 6. | Mahallalarning **“o‘sish nuqtalari”** va ularda yashovchi aholining **tadbirkorlik faoliyatidagi ixtisoslashuvidan** kelib chiqib, ularda istiqomat qilib, **faoliyat yurituvchi aholini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash** tizimini kuchaytirish. | 1. Mahallada **bir turdagi ixtisoslashuvda faoliyat yuritayotgan aholini** qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.<br><br>2. Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘?llikni qisqartirish bo‘yicha hokim yordamchilarining asosiy vazifalaridan biri sifatida yil davomida mahallani o‘rganish va tahlil qilish natijasida uni **o‘rta va qisqa muddatda rivojlantirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish** amaliyotini yo‘lga qo‘yish. | Tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar | 2022-yil avgust | Hisob-kitoblarga asosan | Bosh vazir o‘rinbosari<br><br>**J. Qo‘chqorov**,<br><br>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi<br><br>**R. Gulyamov**,<br><br>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi o‘rinbosari | Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi<br><br>**S. Xolxo‘jayev,**<br><br>Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi<br><br>**R. Mamatov**,<br><br>Moliya vazirligi<br><br>**T. Ishmetov,**<br><br>Savdo-sanoat palatasi |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | **O. Saliyev** | **A. Ikramov**, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| 7. | Mahallalarning **institutsional asoslarini takomillashtirish**, mazkur tizim uchun **yuqori malakali mutaxassislarni maqsadli tayyorlash**. | 1. Fuqarolarning kamida uchdan bir qismi tashabbusi bilan **mahalla raisiga nisbatan ishonchsizlik bildirish** tartibini joriy etish.<br>2. Mahallalar **joylardagi vakillik organlari bilan doimiy aloqalari**ning huquqiy asoslarini yaratish.<br>3. Mahalla tizimi uchun **yuqori malakali mutaxassislarni maqsadli tayyorlash** tizimini tashkil etish. | Qonun loyihasi<br>Amaliy chora-tadbirlar | 2022-yil aprel<br>2022-yil davomida | - | Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri **N. Ismoilov** *(kelishuv asosida)*, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahat | Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi **R. Mamatov**, Adliya vazirligi **R. Davletov,** Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | chisi o‘rinbosari<br><br>**O. Saliyev** | **A. Toshqulov** |
| **2-maqsad. Xalq deputatlari Kengashlarini hududlarda mavjud muammolarni hal qilishdagi asosiy bo‘g‘inga aylantirish.** | | | | | | | |
| 8. | Xalq deputatlari Kengashlarida **doimiy asosda faoliyat yurituvchi deputatlar korpusini shakllantirish** hamda ularning **vakolatlarini kengaytirish va aniq belgilash** orqali hududiy ijro organlari faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish. | 1. Tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlarida **ayrim deputatlarning doimiy asosda ishlashi tartibini** joriy etish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2022-yil may | Hisob-kitoblarga asosan | Oliy Majlis Senati Raisi<br><br>**T. Narbayeva**<br><br>*(kelishuv asosida)*,<br><br>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining birinchi o‘rinbosari<br><br>**K. Kuran** | Oliy Majlis Senati senatorlari<br><br>*(kelishuv asosida)*,<br><br>Adliya vazirligi<br><br>**R. Davletov** |
| | | 2. Mahalliy kengashlar faoliyatining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishga qaratilgan **“Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlari reglamenti to‘g‘risida”gi** qonun loyihasini ishlab chiqish. | Qonun loyihasi | 2022-yil iyul | - | | |
| | | 3. Mahalliy Kengashlarning nazorat funksiyalarini kengaytirish, ularni tizimlashtirish maqsadida **“Xalq deputatlari Kengashlari nazorati to‘g‘risida”gi** qonun loyihasini ishlab chiqish. | Qonun loyihasi | 2022-yil sentyabr | - | | |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | **bayev** | |
| 9. | Xalq deputatlari Kengashlarining **ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishdagi** vakolatlarini yanada kengaytirish. | 1. Ichimlik va oqova suv, ichkiyo‘llar va boshqa infratuzilma obyektlarini qurish, bandlik dasturlarini tasdiqlash kabi masalalarni **tuman (shahar) xalq deputatlari Kengashlari ?akolatiga** o‘tkazish.<br><br>2. Hududlarda davlat ta’lim muassasalari, sog‘liqni saqlash obyektlarini qurish va ta’mirlashga **ajratiladigan mablag‘larni taqsimlash vakolatini viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlariga** o‘tkazish.<br><br>3. Hududlarni kompleks ijtimoiy rivojlantirishga mas’ul bo‘lgan **davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solish tizimini** qayta ko‘rib chiqish. | Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari | 2022-yil may | - | Oliy Majlis Senati Raisi<br><br>**T. Narbayeva**<br><br>*(kelishuv asosida)*,<br><br>Bosh vazir o‘rinbosari<br><br>**J. Qo‘chqorov** | Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi<br><br>**A. Boboyev**,<br><br>Moliya vazirligi<br><br>**T. Ishmetov**,<br><br>Uy-joy �a kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi<br><br>**N. Nazirov,**<br><br>Transport vazirligi |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | **A. Mo‘minov,** Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi **E. Muhitdinov** |
| **3-maqsad. Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining institutsional asoslarini zamon talablariga moslashtirish.** | | | | | | | |
| 10. | Mahalliy ijro hokimiyati organlarini **demokratik tamoyillar asosida shakllantirishning** huquqiy asoslarini yaratish. | 1. Tuman va shahar hokimi lavozimiga nomzod ilgari surilishi tartibini qayta ko‘rib chiqish.<br><br>2. Hokimlikka nomzod mahalliy Kengashda **hududni rivojlantirish bo‘yicha o‘z dasturini himoya qilib, lavozimga tasdiqlanishi** tartibini joriy etish.<br><br>3. Mahallalarning joylardagi vakillik organlari bilan, mahalliy Kengashlarning Oliy Majlis Senati bilan, hokimliklarning vazirliklar va ularning hududiy bo‘linmalari bilan **aloqalarini mustahkamlash**. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2022-yil mart | - | Oliy Majlis Senati Raisi **T. Narbayeva** *(kelishuv asosida)*, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi | Adliya vazirligi **R. Davletov**, Oliy Majlis Senati senatorlari *(kelishuv asosida)*, Davlat boshqaruvi akademiyasi **A. Bekmurodov** |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | ning birinchi o‘rinbosari<br><br>**K. Kuranbayev** | |
| | | 4. Hududlarda amalga oshiriladigan davlat organlarining vazifalari bo‘yicha **“vakolatlar reyestri”ni shakllantirish**, takrorlanadigan **500 dan ortiq funksiyalarni maqbullashtirish**.<br><br>5. Mahalliy hokimliklarning har bir **vazifa ijrosi**, shuningdek **sarflanayotgan mablag‘lar yuzasidan** jamoatchilik oldidagi hisobdorligini oshirish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2022-yil iyun | Hisob-kitoblarga asosan | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining birinchi o‘rinbosari<br><br>**K. Kuranbayev** | Adliya vazirligi<br><br>**R. Davletov,**<br><br>Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| 11. | **Eksperiment tariqasida 28 ta** tuman va shaharda **hududni rivojlantirish va muammolarni hal qilish** bo‘yicha hokimliklar **vakolat va imkoniyatlarini** kengaytirish. | 1. Eksperiment amalga oshiriladigan **tuman va shaharlarni** belgilash.<br><br>2. Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan o‘z tuman (shahar) hokimliklarining hamda hududiy ijro idoralarining **shtat birligi va tuzilmalarini mahalliy Kengashlar bilan kelishilgan holda belgilash** amaliyotini joriy qilish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2022-yil may | Hisob-kitoblarga asosan | Bosh vazir o‘rinbosari<br><br>**J. Qo‘chqorov**, | Moliya vazirligi<br><br>**T. Ishmetov**,<br><br>Adliya vazirligi |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 3. Hududni rivojlantirish va muammolarni hal qilishda hokimliklarga qo‘shimcha **vakolat va imkoniyatlar** yaratish. | | | | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining birinchi o‘rinbosari<br><br>**K. Kuranbayev** | **R. Davletov** |
| 12. | **Mahalliy Kengashlar** hamda **hokimlarning vakolatlarini aniq belgilashga oid qonuniy asoslarni yaratish** orqali alohida qonunlarni qabul qilish. | 1. Mahalliy Kengashlar hamda hokimlarning vakolatlarini ani? ?elgilash.<br><br>2. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat boshqaruvi organlari hududiy boshqarmalari (bo‘linmalari) bilan o‘zaro munosabatlarining aniq mexanizmlarini belgilash.<br><br>3. Hokimliklar va mahalliy Kengashlar tomonidan qabul qilinadigan hujjatlar turlarini aniqlashtirish. | Qonun loyihalari | 2022-yil dekabr | - | Oliy Majlis palatalari<br><br>*(kelishuv asosida)* | Adliya vazirligi<br><br>**R. Davletov,**<br><br>Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi<br><br>**M. Ubaydullayev,** |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | Moliya vazirlig� **T. Ishmetov** |
| 13. | **Mahalliy boshqaruv** faoliyatiga axborot-texnologiyalarini keng joriy qilish. | 1. Hududlar kesimida tizimlashtiriluvchi **40 dan ortiq sohalar bo‘yicha ma’lumotlarni** aniqlashtirish.<br><br>2. Ushbu ma’lumotlarni **jamlovchi tahliliy geoportallarni ishga tushirish** choralarini ko‘rish. | Chora-tadbirlar | 2022-yil oktyabr | Hisob-kitoblarga asosan | Bosh vazir o‘rinbosari **J. Qo‘chqorov,** Bosh vazir maslahatchisi — IT-texnologiyalar telekommunikatsiyalar va innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalala | Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi **S. Xolxo‘jayev,** Statistika qo‘mitasi **B. Begalov** Axborot texnologiyalari vazirligi **Sh. Shermatov** |
| | | 3. **“Raqamli xalq deputatlari Kengashi”** loyihasi doirasida **mahalliy vakillik** | Normativ-huqu | 2022-yil oktyabr | Hisob-kitobl | | Oliy Majlis |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | **organlari faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini** joriy etish.<br><br>Bunda:<br><br>mahalliy Kengashlarning yig'ilishlarini o'tkazishda **ortiqcha sansalorliklarni** bartaraf etish;<br><br>mahalliy Kengashlar tomonidan hududiy ijro organlarini nazorat qilish doirasidagi hisobotlar, qarorlar, so'rovlar va boshqa hujjatlar hamda ularning bajarilishi haqidagi ma'lumotlarni e'lon qilib borish amaliyotini joriy etish nazarda tutiladi. | qiy hujjat loyihasi | | arga asosan | ri departamenti boshlig'i<br><br>*(lavozim bo'yicha)* | palatalari<br><br>*(kelishuv asosida),*<br><br>Axborot texnologiyalari vazirligi<br><br>**Sh. Shermatov,**<br><br>viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| **4-maqsad. Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini "fuqarolarga xizmat qilishga yo'naltirish" tamoyili asosida transformatsiya qilish.** | | | | | | | |
| 14. | Davlat boshqaruvi organlari faoliyati ustidan **davlat nazoratini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvi vujudga kelishini bartaraf etish**, mazkur jarayonga keng **jamoatchilikni** jalb qilish. | 1. Barcha turdagi davlat nazoratini **tizimlashtirish** va ularni amalga oshirishning **aniq mexanizm va tartib-taomillarini** belgilash maqsadida **"Davlat nazorati to'g'risida"**gi qonun loyihasini ishlab chiqish. | Qonun loyihasi | 2022-yil dekabr | - | Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri<br><br>**N. Ismoilov**<br><br>*(kelishuv asosida),* | Adliya vazirligi<br><br>**R. Davletov,**<br><br>Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi<br><br>**A. Burx** |
